

QADIMGI FINIKIYA VA LIDIYADAVLATI

Mahmudova Zulfiya Alimjanovna*Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi***Sherqulov Dadabek Qosimboy o'g'li***Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti 102-guruh talabasi*

Annotatsiya: Qadimgi Lidiya davlati miloddan avvalgi VII-VI asrlarda G'arbiy Anatoliyada mavjud bo'lgan. U o'zining boy oltin konlari, rivojlangan savdosi va birinchi tanga pullarni joriy etganligi bilan mashhur. Lidiya madaniyati, san'ati va harbiy qudrati o'z davrida yetakchi o'rinda turgan. Davlat miloddan avvalgi 546 yilda Fors imperiyasi tomonidan bosib olingan.

Kalit so'z: Lidiya, Anatoliya, oltin, tanga pul, Krez, Sardi, savdo, zargarlik, to'qimachilik, Giges, Paktol daryosi, Kir II, Fors imperiyasi, qadimgi sivilizatsiya

Abstract: The ancient Lydian kingdom flourished in Western Anatolia during the 7th-6th centuries BC. It was renowned for its rich gold reserves, developed trade, and the introduction of the first coins. Lydian culture, art, and military power were prominent in its era. The state was conquered by the Persian Empire in 546 BC.

Key word: Lydia, Anatolia, gold, coinage, Croesus, Sardis, trade, jewelry, textile, Gyges, Pactolus River, Cyrus II, Persian Empire, ancient civilization

Абстрактный: Древнее Лидийское царство процветало в Западной Анатолии в VII-VI веках до н.э. Оно славилось богатыми золотыми месторождениями, развитой торговлей и введением первых монет. Лидийская культура, искусство и военная мощь были выдающимися в своё время. Государство было завоёвано Персидской империей в 546 году до н.э.

Ключевые слова: Лидия, Анатолия, золото, монеты, Крез, Сарды, торговля, ювелирное дело, ткачество, Гигес, река Пактол, Кир II, Персидская империя, древняя цивилизация

Kirish:

Qadimgi Finikiya davlati, miloddan avvalgi 1200–800 yillar oralig'ida, O'rta er dengizining sharqiy qismida, hozirgi Lubnon va Suriya hududlarida joylashgan muhim tsivilizatsiya hisoblanadi. Finikiyaliklar, o'zining dengiz savdosi, tijorat aloqalari va madaniyati bilan mashhur bo'lib, O'rta er dengizining savdo yo'llarida asosiy rol o'ynaganlar. Ular o'zlarining ko'plab shahar-davlatlari, masalan, Tire, Sidon va Byblos bilan tanilgan. Finikiya, savdo va ijtimoiy hayotda katta yutuqlarga erishgan va o'zining me'morchiligi, san'ati va yozuvi bilan tarixda o'ziga xos iz qoldirgan.

Finikiyaliklar, o'zlarining mahalliy tili va diniy an'analariga ega bo'lib, juda ko'p xudolarga sig'inishgan. Ularning diniy hayoti, shahar-davlatlarida joylashgan ma'badlar va diniy marosimlar bilan boyitilgan. Finikiya, shuningdek, ilk marta alifbo yozuvini

rivojlantirgan xalq sifatida tanilgan. Bu yozuv, keyinchalik grek va lotin alifbosi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Finikiya alifbosi, savdo va madaniyat almashuvining rivojlanishida muhim rol o'ynadi va zamonaviy yozuvlarning shakllanishida katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi Lidiya davlati miloddan avvalgi VII-VI asrlarda hozirgi G'arbiy Turkiya hududida gullab-yashnagan. Bu davlat o'zining boy tabiiy resurslari, rivojlangan savdo-sotiq madaniyati va innovatsion yutuqlari bilan tarixda chuqur iz qoldirgan. Lidiya podsholigi Marmara dengizidan to O'rta dengizgacha bo'lgan keng hududlarni o'z ichiga olgan bo'lib, poytaxti Sardi shahri edi.

Lidiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri uning iqtisodiy qudrati edi. Mamlakat Paktol daryosidagi oltin konlari tufayli "oltin o'lkasi" sifatida tanilgan. Bu boylik Lidiyani o'z davrining eng boy davlatlaridan biriga aylantirdi va unga katta siyosiy ta'sir kuchini berdi. Lidiyaliklarning eng muhim innovatsiyalaridan biri - tanga pullarni ixtiro qilishi edi. Miloddan avvalgi VII asrda Lidiya shohi Giges tomonidan joriy etilgan oltin va kumush tangalar dunyodagi birinchi rasmiy valyuta hisoblanadi. Bu kashfiyot savdo-sotiqni yangi bosqichga olib chiqdi va kelgusi iqtisodiy tizimlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Lidiya madaniyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Ular nafis san'at asarlari, zargarlik buyumlari va to'qimachilik mahsulotlari bilan mashhur bo'lishgan. Lidiyaliklar shuningdek, o'zlarining musiqa san'ati bilan ham tanilgan bo'lib, ular ixtiro qilgan musiqa asboblari qo'shni xalqlar tomonidan keng qo'llanilgan. Lidiya davlati o'z davrining eng kuchli harbiy kuchlaridan biriga ega edi. Ular otliq qo'shinlar va jangovar aravalardan samarali foydalanishgan. Bu armiya Lidiyaga o'z chegaralarini kengaytirish va qo'shni davlatlar ustidan hukmronlik o'rnatish imkonini bergan. Biroq, Lidiya davlatining qudrati uzoqqa cho'zilmadi. Miloddan avvalgi 547-546 yillarda Fors imperiyasi shohi Kir II ning hujumlari natijasida Lidiya podsholigi barham topdi. Bu voqea nafaqat Lidiya, balki butun Kichik Osiyo tarixi uchun burilish nuqtasi bo'ldi.

Finikiya – O'rta dengizning sharqiy sohilidagi qad. viloyat. Rivoyatlarga ko'ra, Finikiyaning aholisi Eritreya dengizi sohillaridan kelgan; ayrim finikiyalik tarixchilarning fikricha, finikiyaliklar Finikiyaning tub aholisidir. Miloddan avvalgi 5—4 ming yillikda Finikiya o'zining qulay geografik joylashuviga ko'ra, Mesopotamiya va Nil vodiysi aholisi bilan faol savdo-sotiq olib borgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlarida quldorlik shahardavlatlari: Ugarit (RasShamra), Sidon (Sayda), Beruta (Bayrut), Arvad(Arad), Tir (Sur) va boshqa vujudga kelib, ular miloddan avvalgi 12-asrgacha [Misr](#) fir'avnlari qo'l ostida bo'lgan. Miloddan avvalgi 13-asr oxiri – 12-asrning boshida Finikiya nihoyat Misr mustamlakasidan xalos bo'lgan. Miloddan avvalgi 1ming yillikda Finikiya [O'rta dengiz](#) sohil bo'yining Markaziy va G'arbiy qismini egallab, bu yerlarga kuplab finikiyalik savdogarlar va qaroqchilar kelishi avj olgan. Tasos o.da temir rudasi konlari ochilgan, Melkart xudosi ibodatxonasi va kichik qishloq bunyod etilgan. Atlantika okeaniga tutashgan [Shimoliy Afrika](#) soxillarida, Like, Ispaniyaning jan. kismida, Gades, Malaka, Seksi, Abdera, Sitsiliyada Motiya, Panorm va Sardiyada Nora shaharlari qad. ko'targan.

Finikiyada hunarmandchilik, savdo-sotiq, kemasozlik juda taraqqiy qilgan; dengiz yo‘llaridan keng foydalanilgan. Shaharlar o‘rtasida hukmronlik uchun kurashlar natijasida kucheizlangan Finikiya miloddan avvalgi 8—7-asrlarda Ossuriyaga, miloddan avvalgi 6-asrda Bobilga, miloddan avvalgi 539 yildan 332 yilgacha axomaniylar davlatiga bo‘ysungan. Finikiya miloddan avvalgi 332 yildan makedoniyalik Aleksandr davlati, miloddan avvalgi 3-asr



o‘rtalaridan Salavkiylar davlati qo‘l ostida bo‘lgan. Shu vaqtdan boshlab Finikiyada ellinlashtirish jarayoni kuchaygan. O‘rta dengiz bo‘yidagi Delos, Afina va boshqa shaharlarda finikiyalik savdogarlarning faktoriyalari va uyushmalari paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda Kiprda YunonFinikiya podsholigi vujudga kelgan. Miloddan avvalgi 63 yildan boshlab Finikiya Rimning Suriya provinsiyasi tarkibiga kirgan. Astasekin finikiyaliklar Suriyaning boshqa aholisi tarkibiga singib ketgan.

Finikiya madaniyati.

Finikiya madaniyati miloddan avvalgi IV-I ming yilliklarda [Finikiya](#) va uning mustamlakalari hududida vujudga kelgan. Uning rivojiga misrliklar, shuningdek, [Ossuriya](#), [Bobil](#), [Xett](#), [Egey](#) va yunon madaniyatlari katta ta’sir ko‘rsatdi. Finikiyaliklarning eng katta yutuqlaridan biri miloddan avvalgi II ming yillikda bu yerda undosh harflarning kashf etilishidir. Bu kashfiyot keyinchalik barcha harf-tovush tizimidagi xatlarda ishlatiladigan bo‘ldi. Tarixchilarning fikriga ko‘ra, Finikiya yozuvi Bibl “psevdoiyeiroglifik” yozuv, ya’ni so‘zlardan tarkib topgan xat yoki Sinay yozuvi va uning ilk Falastin variantlaridan kelib chiqqan. Finikiya adabiyotining eng qadimgi namunalari Ugarit mifologik matnlari va Finikiya podsholarining yozishmalari (Bibllik Axiram va Ieximilk, Sidonlik Eshmunazar va boshqalar) dan iborat. Finikiya adabiy va tarixiy asarlari bizgacha yetib kelmagan, lekin so‘nggi (hozirgacha uning haqiqatda ham mavjudligi aniq emas) yozuvlardan biri-Sanxotiaton maktublari zamonamizgacha yetib kelgan. Rim imperiyasi hukmronligi va ellinlar davrida Finikiyada yunon tilidagi adabiyot rivoj topdi: kosmogoniya va teogoniyaga oid Menandraning tarixiy afsonalari, Diy (miloddan avvalgi II-I asrlar), Feodot (milodiy I asr), Bobillik Filon (I-II asrlar) va boshqalarning asarlari. Bu mualliflarning ishlari “Tir solnomasi” va boshqa asarlarda aks etadi. [Shimoliy Afrikada](#) rivojlangan Finikiya adabiyoti, Gannon va Gamilkon dengizchilarining Atlantika okeanidagi sayohatlari haqidagi hikoyalar va qishloq xo‘jaligi ishlarini samarali yuritishga bag‘ishlangan Magon asarlari bizga ma’lum.

Lidiya — [Kichik Osiyoning g‘arbidagi tarixiy viloyat](#). Asosan, Germ va [Meandr daryolari vodiysida](#) joylashgan. M. orqali Sharqqa muhim [savdo](#) yo‘llari o‘tgan. Lidiyaliklar Kichik Osiyoga ko‘chib kelgan turli [elatlar](#) ta’siriga uchramay, an’anaviy [turmush tarzlarini](#) saqlab qolishgan. [Frigiya](#) davlati parchalangach, lidiyaliklarning [roli](#) kuchaygan. Ular [kimmeriylarni](#) hukmronligidan xalos bo‘lib, azaldan

savdo va madaniy aloqada bo‘lib kelgan Kichik Osiyoning g‘arbiy [qirg‘og‘ida](#) joylashgan [yunon shaharlarini](#) bo‘y-sundirganlar. [Sardi](#) shahri L.ning [poytaxti](#), hukmron sulola esa — Mermnadlar bo‘lgan ([podshoxlar](#) Giges, Aliatt, [Krez](#)). Bu sulola vakillari o‘z hokimiyatlarini Kichik Osiyoning [sharqiga](#), [Galis](#) daryosiga qadar yoyganlar. [547 yil forslar](#) shohi [Kir II](#) L. podshosi Krezni mag‘lubiyatga uchratgan va L. [Axomaniylar davlatinnit satrapiyasiga](#) aylangan. L. zodagonlari savdo munosabatlari juda taraqqiy etganligi va mamlakatda boy [oltin konlari](#) mavjudligi tufayli ulkan boylikka ega bo‘lishgan. [Tarixda](#) lidiyaliklar birinchi bo‘lib [tanga](#) zarb etishgan — deb hisoblanadi. [Miloddan avvalgi 334](#) y. L. [Aleksandr saltanati](#), [Salavkiylar davlati](#), Pergam va [Rim](#) imperiyasi tarkibiga (Osiyo viloyatining bir qismini tashkil etgan) kirgan. [Gerodotning](#) yozishicha, lidiyaliklarning bir qismi [Etruriyaga](#) ko‘chib ketgan.

Yunonlarning dalolat berishicha, [Germa](#) daryosi vodiysi “jannatmakon” yurt edi. U dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun qulay va sun‘iy sug‘orishga xojat bo‘lmagan. Bu yerda oltin konlari ham bor edi. Lidiyada hunarmandchilik yuqori rivojlanganligini oltin, tosh va fil suyaklaridan yasalgan buyumlardan bilib olsa bo‘ladi^[1].

Zargarlikdan tashqari Lidiyada to‘qimachilik va terini qayta ishlash ham ravnaq topgan. Hunarmandchilikning rivoji uchun turli xom ashyo talab etilgan. Lidiya o‘z xom ashyo bazasiga ega bo‘lmaganligi sababli xom ashyo qo‘shni davlatlardan olib kelingan. Bu o‘z navbatida savdo-sotiqning ham rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Lidiyaning savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashuvi ham bu sohaning mamlakat hayotida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Yunonlarning tarixiy an‘analariga ko‘ra tarixda birinchi bo‘lib lidiyaliklar tangalar zarb qilgan. [Gerodot](#) ham buni ta’kidlab “lidiyaliklar juda ko‘p tangalarga ega” deb yozadi.

Germa vodiysini egallagan Frigiyada ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘ssishi hamda sinfiy munosabatlar ta’sirida Lidiyada quldorlik tuzumi kuchayib bordi. Lidiya kuchli harbiy qo‘shinga ega bo‘lib, uning asosini piyodalar emas, balki uzun nayza bilan qurollangan otliqlar tashkil qilgan. Ular asosan zodagonlar, yirik va o‘rta hol quldorlardan yig‘ilar edi. Lidiya tarixida bizga ma’lum bo‘lgan dastlabki voqealar [kimmer](#) va [frakiya](#) qabilalari bosqini (miloddan avvalgi VII asr boshlari) hamda buning natijasida ro‘y bergan sulolalar almashuvi edi. Miloddan avvalgi 692 yil yangi sulolaning birinchi shohi [Giges](#) ([Guggu](#)) taxtga o‘tirdi. Ossuriya yordamiga tayangan holda u miloddan avvalgi 665 yilda bostirib kelgan kimmeriyliklarni mamlakatdan haydab chiqaradi va ularni sharqqa chekinishga majbur qiladi. Keyinchalik Giges [Misr](#) shohi [Psammetix I](#) bilan aloqa o‘rnatdi. Misr shohi Giges yordamida Ossuriya istilosidan ozod bo‘lish maqsadida unga yordam berish uchun qo‘shin jo‘natadi.

Tez orada Lidiya yana kimmeriylar bosqini qurboni bo‘ladi. Miloddan avvalgi 654 yilda Giges jang maydonida halok bo‘ladi va bosqinchilar mamlakatning katta qismi, hatto Sardni ham bosib olishga erishadilar. Ko‘p yillik kurash natijasida Gigesning o‘g‘li [Ardis](#) (miloddan avvalgi 654 - 505 yillar) kimmeriylarni Lidiyadan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. Mamlakat bosqinchilardan ozod qilinganidan so‘ng, Ardis Kichik Osiyoning g‘arbiy dengiz bo‘yida joylashgan yunon shahar-davlatlarini bosib ola boshladi.

Ardis sohilning markaziy qismida, yirik yunon shahri [Milet](#) va [Priena](#) shahrini istilo qiladi. Lekin Miletga qarshi harbiy yurishlarda u muvaffaqiyatga erisha olmaydi va keyinchalik bu ishni uning o‘g‘li va nabirasi davom ettiradi. Ichki kurash va nizolar ushbu shahar-davlatlarining tez taslim bo‘lishiga yana bir sabab bo‘ldi. Lidiya shohlari bundan foydalanib, bu shaharlarni osonlikcha bosib olar, aksincha, sharoiti barqaror shaharlarda qattiq qarshilikka duch kelar edilar. Ardis nabirasi [Aliatt](#) hukmronligi davrida sharqda yana bir xavf – Midiya davlati paydo bo‘ldi. Midiya davlati shoh [Kiaksar](#) davri – miloddan avvalgi 615 - 605 yillarda Ossuriya davlatini yakson qiladi va Urartuni egallagach, so‘ng Kichik Osiyoni istilo etishga kirishadi.

Miloddan avvalgi 591 yilda Lidiya va Midiya davlatlari o‘rtasida olti yil davom etgan urush boshlandi. Bu urush miloddan avvalgi 585 yil 28 mayda [Galis](#) daryosi bo‘yida yakunlandi. Miletlik faylasuf [Falesning](#) aytishicha, shu kuni Quyosh tutilishi sodir bo‘lgan. Gerodot “Kun birpasda tunga aylandi” deb yozadi. Bu voqea kurashayotganlarga kuchli ta’sir qilib, afsonada aytilishicha, ular bobilliklar yordamida tinchlik tuzishga shoshilishgan. Ushbu shartnomaga ko‘ra Galis daryosi Midiya va Lidiya o‘rtasidagi chegara qilib belgilangan. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida Aliatt o‘z qizini Midiya shohi Kiaksarning o‘g‘li [Astiagga](#) beradi. Miloddan avvalgi 585 yil esa Astiag otasining o‘rnini egallab Midiya taxtiga o‘tiradi.

Shunday qilib, sharqda Midiya davlati bilan birgalikda o‘z mavqeini mustahkamlagan Aliatt yunon shahar-davlatlariga qarshi bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Bundan tashqari, u Kichik Osiyodagi qabilalarni (paflagon, vifin, kariy va boshqalar) ham bo‘ysundirish niyatida edi. Astiagning o‘g‘li [Krez](#) (miloddan avvalgi 560 - 546 yillar) oxir-oqibat Kichik Osiyo yunonlarini o‘ziga tobe qilib, ularni Lidiyaga boj to‘lashga majbur qildi. Natijada Krez Kichik Osiyoning likiyalik va kilikiyaliklar yashaydigan joylaridan boshqa barcha hududlarning yagona hokimiga aylandi. Lidiyaning Kichik Osiyodagi yunon shaharlari bilan munosabatlari madaniyatning o‘zaro mushtaraklashuvi va boyishiga sabab bo‘ldi. Lidiyaliklar ham frigiyaliklar kabi yunon alifbosini o‘rganib, o‘zlarida tatbiq etishdi. Mamlakatda yunon tili keng miqiyosda o‘rgana boshlandi.

Lidiya shohlari Gigesdan boshlab o‘z yunon qo‘shinlariga, so‘ng esa xalqiga ta’sir o‘tkazish maqsadida yunon ibodatxonalariga qimmatbaho sovg‘alar yo‘llar va ularning yordamiga suyanar edi.

Xulosa:

Qadimgi Finikiya davlati, o‘zining tarixiy ahamiyati, madaniyati va iqtisodiy rivojlanishi bilan O‘rta er dengizi mintaqasida muhim bir o‘rin egallaydi. Finikiya, o‘zining savdo aloqalari, innovatsion alifbo yozuvi va madaniyati orqali boshqa xalqlarga ta’sir ko‘rsatgan. Finikiya shahar-davlatlari, masalan, Tire, Sidon va Byblos, o‘z iqtisodiy qudrati va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu shaharlar, dengiz savdosi va eksport qilingan mahsulotlar bilan bog‘liq holda, Finikiya davlatining kuchini oshirib, uning xalqaro aloqalarini rivojlantirdi.

Finikiya alifbosi, insoniyat tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, kelajakdagi yozuvlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Bu alifbo, savdo va madaniyat almashuvini osonlashtirib, Finikiyaliklarning boshqa xalqlar bilan aloqalarini yanada mustahkamladi. Finikiyaliklar, o'z mahsulotlarini, xususan, purpura rangli matolarini va qimmatbaho toshlarini savdoda keng qo'llagan. Ularning tijorati, ko'plab davlatlar bilan aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Finikiya, shuningdek, tarixan boshqa xalqlar bilan madaniy almashuvlarni amalga oshirgan. Ularning san'ati, me'morchiligi va diniy an'analari, boshqa madaniyatlarga ta'sir ko'rsatdi va Finikiyaliklarning o'ziga xosligini shakllantirdi. Finikiya, O'rta er dengizidagi savdo yo'llarida muhim ko'prik vazifasini o'ynab, boshqa xalqlarning madaniyatlarini birlashtirishda katta rol o'ynadi.

Qadimgi Lidiya davlati, garchi qisqa muddat mavjud bo'lgan bo'lsa-da, jahon tarixida chuqur iz qoldirdi. Uning merosi, ayniqsa iqtisodiy va madaniy sohalarida, bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Lidiyaliklarning eng muhim merosi, shubhasiz, tanga pullarni ixtiro qilishidir. Bu kashfiyot savdo-sotiq va iqtisodiyot rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy pul tizimlari va moliyaviy institutlar aynan shu qadimgi innovatsiyadan kelib chiqqan deyish mumkin. Bugungi kunda raqamli valyutalar va kriptovalyutalar davrida ham Lidiya tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lidiyaning boy tabiiy resurslari va ulardan foydalanish tajribasi ham zamonaviy dunyoda dolzarbdir. Oltin qazib olish va qayta ishlash texnologiyalari, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish masalalari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Lidiya madaniyati, ayniqsa zargarlik va to'qimachilik sohasidagi yutuqlari zamonaviy san'at va dizayn uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Lidiya uslubidagi bezaklar va naqshlar hozirgi kunda ham mashhurdir.

Lidiya davlatining tashqi siyosati va diplomatiyasi ham o'rganishga arziydi. Ular qo'shni davlatlar bilan murakkab munosabatlarni boshqarishda katta mahorat ko'rsatishgan. Bu tajriba zamonaviy xalqaro munosabatlar va diplomatiya uchun ham foydali saboqlar beradi. Lidiya davlatining qisqa muddat ichida yuksalishi va tezda qulashi ham muhim tarixiy saboqdir. Bu tajriba bizga davlatlar va sivilizatsiyalar taqdirining qanchalik o'zgaruvchan bo'lishi mumkinligini eslatadi. Bugungi kunda Lidiya madaniy merosi arxeologiya, tarix va madaniyatshunoslik sohalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Sardi shahri xarobalari va boshqa Lidiya yodgorliklari nafaqat ilmiy, balki turistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Qadimgi Lidiya davlati o'zining iqtisodiy innovatsiyalari, boy madaniyati va siyosiy tajribasi bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin egallaydi. Uning merosi bugungi kunda ham turli sohalarida - iqtisodiyot, madaniyat, san'at va siyosatda o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Lidiya tajribasini o'rganish orqali biz nafaqat o'tmishni tushunish, balki hozirgi zamondagi jarayonlarni tahlil qilish va kelajak uchun muhim xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka, pod. Red;
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u y e r J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire. Winona Lake: Eisenbrauns.
- 10.Kuhrt, A. (2007). The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period. London: Routledge.
- 11.Dandamaev, M. A. (1989). A Political History of the Achaemenid Empire. Leiden: Brill.
- 12.Wiesehöfer, J. (2001). Ancient Persia: From 550 BC to 650 AD. London: I.B. Tauris.
- 13.Curtis, J. & Tallis, N. (2005). Forgotten Empire: The World of Ancient Persia. London: British Museum Press.
- 14.Brosius, M. (2006). The Persians: An Introduction. London: Routledge.
- 15.Waters, M. (2014). Ancient Persia: A Concise History of the Achaemenid Empire, 550-330 BCE. Cambridge: Cambridge University Press.